# “Dehqonobod kaliy zavodi” AJda Energetika xavfsizligi oyligi doirasida seminar tashkil etildi

// 13.11.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dehqonobod-kaliy-zavodi-ajda-energetika-xavfsizligi-oyligi-d




Bugun “Dehqonobod kaliy zavodi” AJda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-iyunda qabul qilingan “Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” gi PQ-222-sonli qarorining mazmun-mohiyatini tushuntirish yuzasidan jamiyat xodimlari uchun seminar tashkil etildi.

Unda elektr energiyasini tejash, undan oqilona foydalanish, qish mavsumiga munosib tayyorgarlik koʻrish hamda energiya tejamkor uskunalarni oʻrnatish boʻyicha joriy yil hisobidan jamiyatda amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalarga ham alohida eʼtibor qaratildi.




Undan tashqari “Energetika xavfsizligi oyligi” doirasida ishlab chiqarishda yoqilg‘i-energiya resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha mas’ullarga tegishli tavsiyalar berildi.




**“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ Matbuot xizmati**